

"MAXAM-CHIRCHIQ" Ajda sodir bo'lgan portlash yuzasidan RASMIY BAYONOT

// 04 October 2022 yil

<https://special.uzkiyosanoat.uz/oz/press/news/maxam-chirchiq-rasmiy-bayonot>



Chirchiq shahrida joylashgan "Maxam-Chirchiq" Ajning Ammiak-1 ishlab chiqarish sexi sintez bo`linmasida 4-oktabr soat 08:30 larda qisqa portlash yuz bergan. Natijada sexning sintez kalonnasida yong`in kelib chiqqan.

Hodisa oqibatida ishchi xodimlar va korxonaning boshqa ishlab chiqarish maydonlari hamda aholi yashash punktlariga zarar yetmagan. Shu bilan birga atrof muhitga zararli gazlar tarqalmagan. Bu bo`yicha barcha xavfsizlik chorolari o`z vaqtida ko`rilgan. Yong`inni bartaraf etish ishlari olib borilmoqda.

Voqea joyiga O`zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o`rinbosari J.Mirzamahmudov boshchiligidagi komissiya a`zolari zudlik bilan yetib borishgan va hozirda hodisa sabablari o`rganilmoqda.

"O`zkiyosanoat" AJ Matbuot xizmati